

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARDA MA’NO KO‘CHISHI VA METONIMIYA: LINGVISTIK VA MADANIY TAHLIL

Shukurova Madina Askarovna

Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlarning ma‘no ko‘chishi va metonimiya jarayonlari o‘rganiladi. Ma‘no ko‘chishi tilning eng faol leksik-semantik jarayonlaridan biri bo‘lib, so‘zlarning asl ma‘nosidan kengayishi, torayishi yoki butunlay yangi ma‘no kasb etishini o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *ma‘no ko‘chishi, metonimiya, metafora, leksik-semantik jarayon, til va madaniyat, so‘z ma‘nosi, ijtimoiy idrok*

СЕМАНТИЧЕСКИЕ СДВИГИ И МЕТОНИМИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И КУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ

Шукурова Мадина Аскарровна

доцент кафедры английского языкознания

Бухарского государственного университета, PhD

Аннотация: *В данной статье исследуются процессы семантических сдвигов и метонимии в английском и узбекском языках. Семантический сдвиг является одним из самых активных лексико-семантических процессов, включающим расширение, сужение или полное изменение значения слова.*

Ключевые слова: *семантический сдвиг, метонимия, метафора, лексико-семантический процесс, язык и культура, значение слова, социальное восприятие*

SEMANTIC SHIFT AND METONYMY IN ENGLISH AND UZBEK: A LINGUISTIC AND CULTURAL ANALYSIS

Shukurova Madina Askarovna

Associate Professor of English Linguistics Department, PhD

Bukhara State University

Abstract: *This article examines the processes of semantic shift and metonymy in English and Uzbek. Semantic shift is one of the most active lexico-semantic processes, including the expansion, narrowing, or complete change of a word’s meaning.*

Keywords: *semantic shift, metonymy, metaphor, lexico-semantic process, language and culture, word meaning, social cognition*

Ingliz tilida ma‘no ko‘chishi (semantic shift) tilning eng faol leksik-semantik jarayonlaridan biri bo‘lib, jamiyat hayotidagi tarixiy, madaniy, ilmiy va texnologik

o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladi. So‘zlar turli sabablar tufayli o‘zining asl ma’nosidan kengayishi, torayishi yoki butunlay yangi ma’no kasb etishi mumkin. Metaforik ko‘chish o‘xshashlik asosida sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, masalan, *mouse* so‘zi avval “kemiruvchi hayvon” ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, texnikaning rivojlanishi bilan “kompyuter sichqonchasi” ma’nosini ham oldi. Yoki *virus* so‘zi dastlab faqat “kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar” ma’nosida bo‘lgan, hozir esa “kompyuter xavfli dasturi”ni ham bildiradi. Metonimik ko‘chishda esa ma’no yaqinligi, aloqadorlik asosiy o‘rin tutadi: masalan, *The White House* AQSH hukumati degan umumlashgan ma’noda, *Hollywood* esa Amerika kino industriyasi ma’nosida qo‘llanadi.

Rus tilshunosi L.A.Bulaxovskiy hosila ma’no yuzaga kelishini olti ko‘rinishda qayd etadi:

1) *metafora* (*kuznechik* - kichik temirchi, *chigirtka*), *vazifadoshlik* (*pero* — pat, *patdan ishlangan yozuv quroli*), *emotsionallik* (*golubchik* - kaptarcha, *suygunchak bola*), *metonimiya* (*pota* - ter, *mexnat*), *xalq etimologiyasi* (*давлеть* - yetishmoq, *bosmoq*), *aloqadorlik* (*nebo* - osmon, *tanglay*).

Mazkur ilmiy qarashlarda sinekdoxa metonimiyaning bir ko‘rinishi deb qayd etilgan. Ba’zi nemis, fransuz, ingliz yoki arab leksikologiyasi bilan shug‘ullangan rus tilshunoslari faqat metafora va metonimiyani ko‘rsatish bilan chegaralanganlar. Rus oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallab chiqarilgan darsliklarda yanada ko‘proq, turli xil ko‘rinishlarga bo‘lib yuborilgan.

N.M.Shanskiy ma’no ko‘chishini uchga: *o‘xshashlik*, *ya’ni metafora*; *yondoshlik* – *metonimiya* hamda *vazifadoshlikka* ajratib ko‘rsatadi. D.N.Shmelev ham N.M.Shanskiyga o‘xshab uni uch ko‘rinishga bo‘ladi. Ammo u sinekdoxa hodisasini ham qayd etgani holda, metonimiyaning bir ko‘rinishi deb ko‘rsatadi. A.A.Reformatskiy ma’no ko‘chishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘rt ko‘rinishda deb bergani holda, u D.N.Shmelevdan farqli, sinekdoxani alohida hodisa sifatida talqin qiladi. Arman tilshunosi E.B.Agayan D.N.Shmelevdan ancha ilgari hosila ma’no yuzaga kelishini xuddi unga o‘xshash holda sinekdoxani metonimiya tarkibida sanab, uch ko‘rinishdan iborat deb bilgan. *Metonimiya* - ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko‘chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka emas, balki ular o‘rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi. Ba’zan metonimiyada so‘z tushib qoladi va natijada yangi ma’no hosilasi yuzaga keladi.

Tilimizdagi mavjud so‘zlar ma’nolarining o‘sishi, ma’no ko‘chishi, ma’noning kengayishi yo torayishi tarzida ro‘y beradi. Borliqdagi narsa- hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma’lum bir asosga ko‘ra boshqa narsa hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi sifatida xizmat qiladi. Misol uchun, burun so‘zi “tirik organizmlarning yuz qismidan bo‘rtib chiqqan nafas olish organi” ma’nosini ifodalash bilan birga “*Yerning suvlikka tomon bo‘rtib chiqqan qismi*” ma’nosini ham ifodalaydi.

Metafora-sodda tilda tashqi o‘xshashlikka asoslanadigan ma’no ko‘chishidir. Unga misol tariqasida “*ko‘z*” leksemasini keltirib o‘tamiz. *Ko‘z* leksemasidan *derazaning ko‘zi*, *daraxtning ko‘zi*, *uzukning ko‘zi*, *buloqning ko‘zi* kabilarda ma’no ko‘chish hodisasi kuzatilgan.

Yuqoridagi fikr va ma’lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, hosila sememasi tildagi tejam qonuniyatini saqlaydi, yangi tushunchalarni paydo bo’lishiga asos vazifasini o’taydi. Nutq jarayonida ma’no ko’chirish usullaridan o’rinli va oqilona foydalanish nutqimizni ta’sirchan va jozibali qiladi. So’zlovchining badiiy estetik qobiliyatini namoyon qiladi. Shuningdek, metonimiya asosida ko’chma ma’no hosil qilish fikrimizni lo’nda, ifodali, ta’sirchan bayon qilishning bir yo’li sanaladi. Tilimizda ularning ahamiyati katta va zalvorlidir¹².

Metonimiyalar eng ko’p qo’laniladigan ko’chim turlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham uni ko’pchilik olimlar o’rgangan va quyidagi turlarga ajratgan. Dunyo tilshunosligida zoomorfik, fitomorfik, antromorfik, ximiomorfik, vegetatomorfik kabi metonimiyalar mavjud. Xususan, Arastu davridan boshlangan metaforologik tadqiqotlar sirasida zamonaviy tadqiq usullari asosida bir til asosida yoki qiyosiy aspektda – turli aspektlarda atroflicha o’rganildi va o’rganilmoqda. Shu o’rinda fitomorfik va fitonimik atamalarini bir-biridan farqlashimiz lozim bo’ladi¹³. Fitonimik Metonimiya deganda faqat o’simlik nomlari asosidagi nom ko’chishlari nazarda tutiladi: chinor (“uzoq umr”), sarv (“qad”), lola (“chiroy”) kabi. Biroq fitomorfik metonimiyada o’simlik nomlari, xususiyatlari, qismlari, hosil, mahsulot nomlarining metaforik qo’llanilishi nazarda tutiladi: danak (“nevara”), ildiz (“ajdodlar”), meva (“farzand”) kabi. Misol uchun: *Danagidan mag’zi shirin. Muhabbat mevasi, umring chinordek uzun bo’lsin* kabilar. O’simliklar xalqlar turmush tarzida keng ahamiyatga ega. Xalq hayotini o’simliklarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. O’ziga xos iqlim sharoiti, suvga bo’lgan Metonimiyalar eng ko’p qo’laniladigan ko’chim turlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham uni ko’pchilik olimlar o’rgangan va quyidagi turlarga ajratgan.

Dunyo tilshunosligida zoomorfik, fitomorfik, antromorfik, ximiomorfik, vegetatomorfik kabi metonimiyalar mavjud. Xususan, Arastu davridan boshlangan metaforologik tadqiqotlar sirasida zamonaviy tadqiq usullari asosida bir til asosida yoki qiyosiy aspektda – turli aspektlarda atroflicha o’rganildi va o’rganilmoqda. Shu o’rinda fitomorfik va fitonimik atamalarini bir-biridan farqlashimiz lozim bo’ladi. Fitonimik Metonimiya deganda faqat o’simlik nomlari asosidagi nom ko’chishlari nazarda tutiladi: chinor (“uzoq umr”), sarv (“qad”), lola (“chiroy”) kabi. Biroq fitomorfik metonimiyada o’simlik nomlari, xususiyatlari, qismlari, hosil, mahsulot nomlarining metaforik qo’llanilishi nazarda tutiladi: danak (“nevara”), ildiz (“ajdodlar”), meva (“farzand”) kabi. Misol uchun: *Danagidan mag’zi shirin. Muhabbat mevasi, umring chinordek uzun bo’lsin* kabilar. O’simliklar xalqlar turmush tarzida keng ahamiyatga ega. Xalq hayotini o’simliklarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. O’ziga xos iqlim sharoiti, suvga bo’lgan.

Metonimiya lingvomadaniyatning eng faol ifodachisi sifatida xalqning tarixiy tajribasi, hayot tarzi, ijtimoiy va siyosiy ongini o’zida mujassam etadi. Zero, har bir til jamoasi dunyoni o’z qadriyatlari va madaniy tajribasi orqali idrok etadi va bu jarayon semantik mexanizmlarda,

¹² Littlemore, Jeannette. *Metonymy: Language, Mind and Culture*. Cambridge University Press, 2015. [Cambridge University Press & Assessment](#)

¹³ Nurmonov, A., Sobirov, A., Qosimova, N. *Hozirgi o’zbek adabiy tili*. Toshkent: Ilm Ziya, 2013.

xususan metonimiyada yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi *Downing Street* birgina geografik manzil bo‘lsa ham, inglizlar ongida u Bosh vazir boshqaruvi va hukumat tizimini anglatadi; *Wall Street* esa shunchaki ko‘cha nomi emas, balki AQSH moliya bozorlari, banklar va kapitalizmning ramzi sifatida tushuniladi. O‘zbek tilida esa *Mustaqillik maydoni qaror qildi* deyilganda, joy emas, davlat hokimiyati nazarda tutiladi; *Sirdaryo qo‘zg‘alibdi* iborasida hudud emas, shu joy aholisi nazarda tutiladi. Inglizlar uchun *Cambridge* yoki *Harvard* ta’lim elitasining belgisiga aylangan bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida *Xorazm maqomi*, *Farg‘ona yo‘li* kabi nomlar nafaqat hudud, balki ma’naviy meros va ijodiy an’analar timsolidir. Shuningdek, ingliz madaniyatida *the crown* hokimiyat ramzi bo‘lib, qirol vakolatini bildirsa, o‘zbeklarda *taxt* yoki *chilton* orqali hukmdorlik ulug‘lanadi: *Taxt tebrandi* deyilsa aslida siyosiy beqarorlik nazarda tutiladi. Metonimiya millat tafakkurida faollik darajasi bilan ham ajralib turadi: inglizlar tomonidan *the press*, *the bench* kabi atamalar orqali jamiyat institutlari nomlanadi, o‘zbeklarda esa *qalam ahli*, *sahnadagi yulduzlar* kabi iboralar madaniy qatlamni ifodalaydi¹⁴.

Bu holatlar shuni ko‘rsatadiki, metonimiya faqat semantik jarayon emas, balki xalqning madaniy xotirasi, tarixiy ong va ijtimoiy identifikatsiya uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Uning asosida xalqning o‘ziga xos olam manzarasi yotadi va metonimik timsollar orqali milliy mentalitet til birliklarida mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Littlemore, Jeannette. *Metonymy: Language, Mind and Culture*. Cambridge University Press, 2015. Cambridge University Press & Assessment.
2. Nurmonov, A., Sobirov, A., Qosimova, N. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent: Ilm Ziyo, 2013.
3. Ruis de Mendoza Ibáñez, F. J. “The Role of Mappings and Domains in Understanding Metonymy.” *Metaphor and Metonymy at the Crossroads: A Cognitive Perspective*, edited by Panther & Radden, Mouton de Gruyter, 2003, pp. 109-132.
4. Askarovna, S. M., & Sharifovna, S. S. (2024). OVERALL CONSIDERATION OF THE CATEGORY OF VOICE OF VERB IN THE ENGLISH LANGUAGE. *SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY*, 2(15), 22-30.
5. Askarovna, S. M. (2024). LINGUISTIC NATURE AND STYLISTIC FUNCTIONS OF SIMILE IN THE ENGLISH LANGUAGE. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(22), 152-157.
6. Askarovna, S. M. (2024). MODERN LINGUISTICS AND A GENERAL OVERVIEW OF THE PROBLEM OF TERMINOLOGY. *INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS*, 2(24), 258-264.

¹⁴ Ruis de Mendoza Ibáñez, F. J. “The Role of Mappings and Domains in Understanding Metonymy.” *Metaphor and Metonymy at the Crossroads: A Cognitive Perspective*, edited by Panther & Radden, Mouton de Gruyter, 2003, pp. 109–132.

7. Shukurova, M. A. Theoretican and Practical Investigation of the Terms of Etics of the XVI-XVII Centuries. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*.

8. Шукурова, М. А. USEFUL STRATEGIES IN TEACHING GRAMMAR IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES.

9. Шукурова, М. А. COHERENCE AND COHESION AS ESSENTIAL PARTS IN EFFECTIVE WRITING.

10. Шукурова, М. (2023). СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ЭТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ XVI-XVII ВЕКА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 41(41). извлечено от

https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10792

11. Шукурова, М. (2023). Some Concepts on Systematization of the Vocabulary of Ethics. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 42(42). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10952

12. Erkinovna, Y. F., Djurabaevna, D. N., & Madina, S. (2020). The Expression of Politeness Category in The Uzbek And English Languages. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(09).

13. Шукурова, М. А. (2016). СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ЭТИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ, ФОРМИРОВАНИЕ И СИСТЕМАТИЗАЦИЯ. *ных работ VII Международной научно-практической конференции (Санкт-Петербург–Астана–Киев–Вена), 28 апреля 2016 года, 2 т./Международный научный центр, 2016.—78 с.*